



INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH

Pardaboyeva Madina Farxod qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti amaliy psixologiya
yo'nalishi 2-bosqich talabasi
pardaboyeva969@gmail.com

Begimqulova Odina Xamza qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti Pedagogika
yo'nalishi 1-bosqich talabasi
begimqulovaodina01@gmail.com

Komiljonova Sevinch Azamat qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Pedagogika fakulteti amaliy psixologiya
yo'nalishi 2-bosqich talabasi
Komiljonovasevinch7@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13969553>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- Oktyabr 2024 yil
Ma'qullandi: 15- Oktyabr 2024 yil
Nashr qilindi: 22- Oktyabr 2024 yil

KEY WORDS

boshlang'ich ta'lim innovatsion yondashuv, ta'lim texnologiyalari, pedagogik tizim, mustaqil mashg'ulotlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan innovatsion yondashuv asosida ishlash, boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar va yo'nalishlardan foydalanish, zamonaviy ta'lim texnologiyalarining boshlang'ich ta'lim jarayonida dolzarbligi, innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi to'g'risida to'liq bayon etilgan.

Rivojlanishning yangi ijtimoiy holati o'quvchidan alohida faoliyatni talab qiladi - o'qitish. Bola maktabga kelganda, o'quv faoliyati bu hali mavjud emas va u shaklda takomillashtirilishi zarur o'rganish ko'nikmalari. Bu aniq o'quvchining o'ziga xos vazifasi maktab yoshi. Mazkur shakllanish yo'lida duch kelgan asosiy qiyinchilik bu bolaning maktabga kelgan motivi u maktabda bajarishi lozim bo'lgan faoliyat mohiyatiga bog'liq emas. U ijtimoiy ahamiyatga ega va ijtimoiy jihatdan baholanadigan tadbirlarni amalga oshirishni xohlaydi va maktabda kognitiv motivatsiya talab etiladi.

Pedagogik texnologiya - bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'z oldiga ta'lim shakllarini samaradorligini oshirish vazifasini qo'yuvchi texnik, shuningdek shaxs resurslari va ularning aloqasini hisobga olib yaratish, foydalanish va belgilashning tizimli metodidir. Zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish ta'limni rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish hozirgi kunning eng muhim bo'lgan talablaridan biridir. Yangi pedagogik texnologiya darslarning an'anaviy darslardan farqi shuki bu darsda o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib berib, unga o'z fikrini yorqin bayon etishga imkon yaratib berishdir. Boshlang'ich ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar va yo'nalishlardan foydalanish bugungi kunda dolzarb sanalib, bu borada olimlarimizning bir qator tadqiqotlari

mavjud. Zamonaviy axborot

texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuter tarmoqlari ostida ta'lim jarayoni axborot bilan ta'minlash shakllanib boradi. Natijada o'quv faoliyat jarayoni ham yangilikka muhtoj bo'lib qoldi. Innovatsion pedagogik masalalarni yechish ta'lim sohasida innovatsion jarayonlarning borish xususiyatlari o'rganishdan iborat. Innovatsiyani tanlashda pedagogik tizimda yaxlit pedagogik o'quv yurti, pedagogik nazariya, o'qituvchi, o'quvchilar pedagogik texnologiyasi, ma'lum shakl, metod, vositalar, boshqaruv maqsad va natijalar muvofiq boshlang'ich sinf ta'limida o'quv jarayonini tashkil qilish holati jiddiy bo'lib, o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Chunki bu davrda o'quvchining ta'lim tushunchalarini qabul qilish salohiyati yuqori saviyada bo'lib, ularni doimiy tarzda nazorat qilib borish kerak bo'ladi. Darslarda ko'proq ularni qiziqtirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Umumta'lim maktablarining ta'lim jarayonida turli xil pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarni foydalanishi darsmashg'ulotlarning samaradorligini oshiruvchi omillardan sanaladi. Ta'lim mazmuni, shakli va usullarini takomillashtirish, ularning uzviyligini ta'minlash, o'qitishning noan'anaviy usullari, zamonaviy axborot va ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, didaktik materiallar va texnik vositalarni qo'llash, fanlararo bog'lanishlarni hisobga olish bularning hammasi o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani tufayli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal shakllanib borishiga ko'proq e'tibor qaratish kerak. Bu esa boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan juda katta mas'uliyat talab etadi. Ular maktab ostonasiga endigina qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda rivojlanadi. Muhokama: O'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish, xohish va istaklarini qo'zg'atish yordamida maqsadga erishish motivatsiya bo'lib, bu o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ichki yaqinlashuvidir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'qish motivini takomillashtirish yuqori ahamiyatga ega bo'lib bu o'quvchilarni ta'lim jarayoniga qiziqtiradi, darsga faol qatnashishga, bilimlarni egallashga undaydi. Interfaol metodlar o'qish motivini rivojlantirishga katta yordam beradi. Boshlang'ich sinflarda asosan bolalarning yoshini, bilim saviyasini hisobga olish kerakligini unutmaslik zarur. Ularga oddiy, oson va vaqt kam sarflanadigan o'yin mashqlardan foydalanib, darslar o'tish yaxshi samara beradi. Ko'proq atrof-muhit bilan bog'lab o'tilgan mashg'ulotlar bolalar ongini, dunyoqarashini, erkin fikrlash, bayon etish qobiliyatini, mustaqil ishlash malakasini shakllantiradi. Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati asosida amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'qituvchi, shuningdek o'quvchilar faoliyatini o'z ichiga oladi. O'qituvchining faoliyati o'quv materialini bayon etish, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini rivojlantirish, o'quvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat. O'z ishiga ixlos bilan qaragan o'qituvchida chinakam istak bo'ladi. Darhaqiqat, har bir dars mavzusini o'rganishda o'ziga xos texnologiya, usul va vositalarni tanlashga to'g'ri keladi. Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'lim-tarbiya jarayonining yuksak darajada taraqqiy etishi hozirgi kun o'qituvchisidan o'z ustida doimiy ishlashni, zamon bilan hamnafas bo'lishni, zamonaviy o'qitish usullari va vositalaridan xabardor bo'lishni, axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalana olishni talab qiladi. Biz tarbiyalayotgan ertangi kun egalari ta'lim beruvchidan ijodkorlik, tashabbuskorlik, faollik, o'z

fikrini aniq va ravon tilda bayon etishni, mustaqil fikrlashni o'rganibgina qolmasdan, o'qituvchi shaxsini namuna va o'rnak sifatida qabul qiladilar. Ayniqsa, ta'limning poydevori hisoblangan boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida ta'lim oluvchilarning nutqiy ko'nikmalari, tafakkur qilish va mantiqiy fikrlash jarayonlari ustida ish olib boriladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Yo'ldoshev. J.G'. Usmonov.S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.- T.: O'qituvchi, 2004.
2. Jo'rayev R.H., Zunnunov A. Ta'lim jarayonida o'quv fanlarini integratsiyalashtirish omillari. O'qituvchilar uchun o'quv qo'llanma. -T.: Sharq, 2005.
3. Ibragimov R. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari. Ped.fan.doktori ilmiy darajasi olish uchun yozilgan avtoreferati. - T.: 2005
4. Jumaev M.E., Yuldasheva M.Yu., Mingbaeva B.U., Mamatova G.A., Levkina M.F. Boshlang'ich ta'lim fanlarini o'qitish metodikasi., 2017.
5. Professional Self - Self Awareness and Career Choice. (2024). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 2(5), 84-88. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/357m>
6. Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li. (2024). RAHBAR VA XODIM MUNOSABATLARINING BOSHQARUV JARAYONIDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 41(1), 110-113. Retrieved from <https://www.newjournal.org/index.php/01/article/view/12079>
7. Xusanova, N. . (2024). FACTORS INFLUENCING THE PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF PRESCHOOL CHILDREN WITH DIFFERENT TEMPERAMENTS. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(10), 17-20. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/37667>
8. Amangeldiyev, S. . (2024). THE IMPORTANCE OF SOCIAL ACTIVITY IN OLD AGE: A KEY FACTOR FOR PSYCHOLOGICAL WELL-BEING. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 4(10), 12-16. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/37666>
9. Usarboeva , D. (2024). DEVELOPMENT OF THE MECHANISM FOR FORMING ACADEMIC MOBILITY OF STUDENTS. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 2(8), 40-43. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yopa/article/view/37442>
10. Abdurasulov, J. (2024). PEDAGOGICAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF MILITARY PATRIOTIC EDUCATION IN GENERAL SECONDARY EDUCATIONAL INSTITUTIONS. В INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (Т. 4, Выпуск 7, сс. 38-40). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.12721051>
11. Abduqodirova, & Pardaboyeva, M. (2024). THE ROLE OF EMOTIONAL CREATIVITY IN STUDENTS' DECISION-MAKING. INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES, 1(7), 27-30. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13819583>
12. <https://universalconference.us/universalconference/index.php/ICNSHS/article/view/2371>
13. Тожибоев Марат Нормадович ТАЛАБАЛАРНИНГ ПЕДАГОГИК ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВ // SAI. 2023. №Special Issue 10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/talabalarning-pedagogik-tafakkurini-rivozhlantirishga-innovatsion-yondashuv>

14. Zilola Dilmurodova. (2024). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL NATURE OF ABILITY. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 27, 1–4. Retrieved from <https://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/1092>
15. Абдусаматова Шахло Саитмуратовна. (2024). РОЛЬ ПСИХОЛОГИИ В ФОРМИРОВАНИИ ТОЛЕРАНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ. IMRAS, 7(7), 39–43. Retrieved from <https://journal.imras.org/index.php/sps/article/view/1664>
16. Ozodqulov, O. (2024). VATANPARVARLIK RUHINI TALABALARDA RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. В CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH (Т. 2, Выпуск 10, сс. 37–41). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13945058>

